

№ 516

2025 yil «5» «sentabr»

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning odob-axloq komissiyasi
to‘g‘risidagi nizomni yangi tahririni tasdiqlash haqida**

Bank boshqaruvining 2023-yil 24-martdagi 72/1-sonli qarori bilan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning odob-axloq komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan.

Hozirda Bank tizimida Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati alohida mustaqil tarkibiy bo‘linma sifatida tashkil etilganligi hamda bir qator tarkibiy bo‘linmalar transformatsiya etilganligini inobatga olib, mazkur Nizom qoidalarini amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish, Odob-axloq komissiyasi tarkibini shakllantirish mexanizmini o‘zgartirish zarurati vujudga kelgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosariga 2025-yil 22-avgustda 6248-sonli bildirishnoma kiritilib, yuqorida ko‘rsatilgan Nizomni qayta ko‘rib chiqish, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga ruxsat so‘ralgan.

Shu munosabat bilan, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizomning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqilib, tegishli tarkibiy bo‘linmalar bilan kelishilgan hamda o‘rnatilgan tartibda Bank boshqaruvi muhokamasiga kiritilgan.

“Bank boshqaruvi to‘g‘risida”gi nizomning 21-bandiga binoan Bankning nizom, tartib, qoida va yo‘riqnoma shaklidagi ichki qoidalarini tasdiqlash va ularga o‘zgartirishlar kiritish Bank boshqaruvining vakolatiga kiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Bank boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning odob-axloq komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizomning yangi tahriri ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati (Sh.Ismoilov) mazkur Nizom tasdiqlanganidan so‘ng, bank tarkibiy bo‘linmalari va tarmoqlariga yetkazilishini ta’minlasin.
3. Yuridik departament (U.Aminova) mas’ul tarkibiy bo‘linma tomonidan taqdim etilgan Nizomning yangi tahriri ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Mazkur Nizom tasdiqlanishi munosabati bilan, Bank boshqaruvining 2023-yil 24-martdagi 72/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning odoq-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

5. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari (A.Ergashev) zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi	IMZOLANGAN	A.Akbarjonov
Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari	IMZOLANGAN	A.Ergashev
Boshqaruv Raisi o‘rinbosari	IMZOLANGAN	Sh.Yakubov
Boshqaruv Raisi o‘rinbosari	IMZOLANGAN	D.Umarov
Boshqaruv Raisi o‘rinbosari	IMZOLANGAN	S.Abduvaliev
Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti Departament direktori	IMZOLANGAN	A.Xujamuratov

Kiritildi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari	IMZOLANGAN	Sh.Ismoilov
---	-------------------	-------------


Kelishuvchilar:

Yuridik departament Departament direktori v.v.b.	KELISHILDI	U.Aminova
--	-------------------	-----------



<https://hujjat.sqb.uz/?pin=rU86mN86&id=8dec101f-3b1c-466b-b652-5cd5640e176d>

Yuridik departament
Korporativ va ichki hujjatlar
ekspertizasi xizmatida
2025-yil "8" sentabr da
6 — son bilan
RO'YXATGA OLINGAN



"O'zsanoatqurilishbank" ATBning Odob-axloq komissiyasi to'g'risida NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, "O'zsanoatqurilishbank" ATBning (keyingi o'rinlarda – Bank) Odob-axloq komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Komissiya) faoliyatini tartibga soladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Komissiya Bank xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etishini nazorat qilish, ularning axloq normalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarini oldini olish va odob-axloq qoidalariga rioya etish bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish maqsadida tuziladi.

2. Komissiya Komissiya raisi, kotibi va a'zolaridan iborat bo'lib, umumiy soni besh nafardan kam bo'lmasligi va toq sonda bo'lishi lozim.

Komissiya tarkibiga tajribali, mehnat jamoasida obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan xodimlar kiritiladi.

Komissiya tarkibi Bank Boshqaruv Raisining buyrug'i qarori bilan tasdiqlanadi va doimiy ravishda faoliyat yuritadi.

Komissiya tarkibiga komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi ehtimolini nazarda tutgan holda o'zgartirish kiritiladi.

2-bob. Komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

3. Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
xodimlarning idoraviy odob-axloq qoidalarini ishlab chiqish;
xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi masalalarini ko'rib chiqish, xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;
xodimlar o'rtasida axloq normalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
jismoniy va yuridik shaxslarning xodimlarning xatti-harakatlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqish;
xodimlarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;
xodimlarning odob-axloq qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi holatini tahlil qilish, natijalari haqida davlat organi va tashkiloti rahbari va jamoatchilikni xabardor qilib borish.
xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni, shuningdek ushbu qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan boshqa vazifalarni amalga oshirish;
korruptsiyaga oid huquqbuzarlik masalalarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan Bank xodimlarini rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish.

4. Komissiya o'z vakolatlari doirasida:

xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlaydi;
xodimlarning odob-axloq qoidalarini bilan bog'liq masalalarini ko'rib chiqish jarayonida zarur axborotni so'rab oladi;
ko'rib chiqish uchun kiritilgan masalalarni hal etish uchun Komissiya majlislariga ekspertlar va mutaxassislarni jalb qiladi;
odob-axloq qoidalariga oid masalalar yuzasidan xodimlarga tegishli maslahat va tushuntirishlar beradi;
zarur hollarda, Komissiyada ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha xodimni intizomiy javobgarlikka tortish yuzasidan Bank rahbariyatiga taklif kiritadi.

5. Komissiya Bank tarkibiy bo'linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslari va jamoatchilik bilan hamkorlik qiladi.

3-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish

6. Komissiya majlislari zaruriyatga qarab o'tkaziladi.

Komissiya majlislari ochiq tarzda o'tkaziladi. Zarur bo'lgan hollarda Komissiya yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

7. Komissiya majlisini Komissiya raisi, u yo'qligida esa, uning topshirig'iga binoan Komissiya a'zolaridan biri olib boradi. Komissiya majlisida bayonnoma yuritiladi, u raislik

qiluvchi va Komissiya kotibi tomonidan imzolanadi.

8. Komissiya majlislari, agar ularda Komissiya a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

9. Komissiyaning navbatdagi majlisi to'g'risida uning raisi Komissiya a'zolariga yozma ravishda, qoida tariqasida, kamida ikki kun oldin xabar qiladi, shuningdek majlisning boshqa ishtirokchilarini oldindan xabardor etadi.

10. Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashgan Komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Komissiyaning qarorlari Komissiya raisi tomonidan imzolanadi.

11. Komissiya raisi:

Komissiya ishini tashkil etadi;

Komissiya majlislarini chaqiradi va o'tkazadi;

Komissiya a'zolariga topshiriqlar beradi;

Bank tarkibiy bo'linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslar va jamoatchilik bilan bo'lgan munosabatlarda Komissiya nomidan ish yuritadi;

Komissiya majlislarida Komissiya faoliyati to'g'risidagi axborot bilan so'zga chiqadi; har yili Bank rahbariyatiga Komissiya faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi.

12. Komissiya kotibi:

Komissiyaning faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Komissiyaning navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Bank xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq Komissiya majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Komissiyaning a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Komissiya majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar haqida xabardor qiladi;

Komissiya majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi.

13. Komissiya a'zosi:

Komissiya tomonidan ko'rib chiqiladigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berishga;

Komissiyaning ko'rib chiqishi uchun masalalar va takliflar kiritishga;

qarorlar tayyorlanishida, muhokamasida, qabul qilinishida, shuningdek ularning amalga oshirilishini tashkil etishda hamda bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga;

ko'rib chiqilayotgan masalaga doir hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqa zarur axborot bilan tanishishga;

Komissiya qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda o'z nuqtai nazarini bayon etishga haqli.

14. Komissiyasi a'zosi Komissiya majlisida hozir bo'lishi va o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shart.

Komissiya a'zosi Komissiya majlisida hozir bo'lish imkoni bo'lmaganda Komissiya raisini oldindan xabardor etishi lozim.

15. Komissiya majlisida ko'rilayotgan masalalar Komissiya raisi, kotibi va a'zolariga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan taqdirda o'zini o'zi rad qilishi shart.

4-bob. Bank xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalarini buzilishining oldini olish (profilaktika) choralari ko'rish

16. Komissiya muntazam ravishda xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va ularning buzilishini oldini olishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi profilaktik kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

xodimlarda yuksak kasbiy madaniyatni, jamoada sog'lom ma'naviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantirish;

xodimlarni "halollik vaktsinasi" bilan emlash, ya'ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma'rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi muvofiqlik munosabatda bo'lish kayfiyatini shakllantirish;

Bankda taniqli ziyolilar, ijodkorlar, ma'naviyat va ma'rifat sohasining ko'zga ko'ringan namoyondalari, o'z sohasida yuksak natijalarga erishgan mehnat faxriylarini jalb qilgan holda, uchrashuvlar tashkil qilib borish;

Bankda xodimlarning kasbiy va boshqaruv ko'nikmalari o'sishini, shuningdek ularning malakasini doimiy ravishda oshirishni, ular tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etishlarini ta'minlash maqsadida ularning bilimlari va malakasini doimiy takomillashtirish ishlarini ta'minlash;

xodimlarning iqtisodiy bilimlarini, huquqiy savodxonligini, huquqiy madaniyati va huquqiy ongini, intellektual va ma'naviy rivojlanishini oshirish maqsadida iqtisodiy va huquqiy o'qishlar tashkil etish;

yangi ishga qabul qilingan xodimlarni odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilish borasida stajirovkadan o'tkazish va ular bilan profilaktik suhbatlar tashkil qilish;

xodimlarni malaka oshirish kurslariga, xalqaro seminarlar, konferensiyalar va shu kabi boshqa tadbirlarga yuborish, ular tomonidan o'z kasbiy darajasi va axloqiy sifatlarini mustaqil oshirishlari uchun shart-sharoit yaratib berish.

17. Komissiya xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalarini buzilishining oldini olish (profilaktika) borasidagi o'z faoliyatini Komissiya tomonidan tasdiqlanadigan choraklik ish rejalari asosida olib boradi.

18. Xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalarini buzilishining oldini olish (profilaktika) choralari Komissiya tomonidan Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari hamda kasaba uyushmalari qo'mitalari bilan birgalikda tashkil etiladi.

19. Xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalarini buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarining natijadorligi yil yakunlari bo'yicha o'tkaziladigan Komissiya yig'ilishida muhokama qilinadi.

5-bob. Bank xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish

20. Komissiya xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishlari bilan bog'liq masalalarni:

Bank rahbariyatining topshirig'iga ko'ra;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning murojaatiga asosan;

Bank xodimlarining, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga

binoan;

o'z tashabbusi bilan ko'rib chiqadi.

21. Komissiya majlisiga, haqiqiy holatlarni aniqlash va xolisona qaror qabul qilish maqsadida, o'ziga nisbatan masala ko'rib chiqilayotgan xodim, zarur bo'lgan hollarda esa, murojaat qiluvchi va boshqa shaxslar taklif etiladi. Komissiya majlisining vaqti va joyi haqida tegishli ravishda xabardor etilgan shaxslarning kelmasligi murojaatni ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

22. Komissiya majlisida:

kun tartibidagi masala o'qib eshittiriladi;

Bank rahbariyatining topshirig'i yoki xodim tomonidan odob-axloq qoidalari buzilganligi to'g'risidagi murojaat o'qib eshittiriladi;

odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlikda ayblanayotgan xodim va murojaatchilarning tushuntirishlari eshitiлади.

23. Xodim o'zining huquqi, sha'ni va qadr-qimmatiga, ishchanlik obro'siga daxl qiladigan murojaat bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'zini himoya qilishga, Komissiyaga zarur materiallar hamda boshqa axborotlarni taqdim etishga haqli.

24. Majlis yakuni bo'yicha Komissiya xodimning harakatlarida odob-axloq qoidalarining buzilishi faktining mavjudligini yoxud mavjud emasligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

25. Odob-axloq qoidalari buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda Komissiya tomonidan xodimlarga quyidagi axloqiy ta'sir choralari qo'llaniladi:

ogohlantirish;

uzr so'rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish;

Bankning kollegial yig'ilishlarida tanbeh berish.

26. Komissiya xodimga nisbatan intizomiy ta'sir chorasini qo'llash uchun Bank rahbariyatiga taqdimnoma kiritishi mumkin.

27. Komissiya tomonidan quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:

komissiyada oldin ko'rib chiqilgan murojaat va aynan shu mazmundagi takror murojaatlar;

anonim murojaatlar;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.

28. Komissiya qabul qilingan qaror haqida murojaat qiluvchiga, o'ziga nisbatan masala ko'rib chiqilgan xodimga va Bank rahbariyatiga yozma ravishda ma'lum qiladi.

29. Komissiyaning qarori ustidan Bank rahbariyatiga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

30. Xodim tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi haqidagi murojaat uning tashabbuskori tomonidan Komissiya qarori qabul qilinguniga qadar qaytarib olinishi mumkin.

31. Taraflar yarashgan, shuningdek xodim o'z xohishi bilan murojaatchidan oshkora uzr so'ragan hollarda, unga nisbatan ta'sir choralari qo'llanilmasligi mumkin.

6-bob. Yakuniy qoidalar

32. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari

bilan tartibga solinadi.

33. Komissiya a'zolari va xodimlar ushbu Nizom bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilishdan o'zini tiyishi lozim, jumladan:

korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etishi;

qonunchilik hujjatlari, shuningdek ular asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qilishi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari mavjudligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishi lozim.

34. Komissiya a'zolari va xodimlar manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun talablariga qat'iy rioya qilishlari shart.

35. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

36. Mazkur Nizom kuchga kirishi munosabati bilan Bank Boshqaruvining 2023-yil 24-martdagi 72/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning Odob-axloq komissiyasi to'g'risida"gi Nizom o'z kuchini yo'qotgan deb topiladi.

**Boshqaruv Raisining
birinchi o'rinbosari:**



A.Ergashev

№ 74

2025 yil «26» «avgust»

kelishuvchilar: A.Kamalov, A.Yoqubjonov, Абдуллаев Комилжон Истатилло ўғли
, Sh.Ismoilov, D.Shamirzayev

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=dM94gD72&id=ba9e5ddc-b8c9-4a97-939a-917ffa924122>